

**AMALIY SAN'AT TA'LIMIDA TALABALARNING IJODIY
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ HUNARMANDCHILIGI
AN'ANALARI VA INNOVATSION PEDAGOGIK METODLAR
INTEGRATSIYASI**

Muallif: Madumarova Zuhraxon Rashidjon qizi

Ilmiy darajasi: Magistr

Email: zuhramadumarova07@gmail.com

Tel: +998948281802

**ИНФОРМАЦИЯ О
СТАТЬЕ**

**ИСТОРИЯ
СТАТЬИ:**

Received: 25.09.2026

Revised: 26.09.2026

Accepted: 27.09.2026

**КЛЮЧЕВЫЕ
СЛОВА:**

*amaliy san'at ta'limi,
flipped classroom, xalq
hunarmandchiligi,
ganchkorlik, naqqoshlik,
ijodiy qobiliyat,
innovatsion metodlar,
integratsiya, pedagogik
model..*

АННОТАЦИЯ:

Ushbu tadqiqot amaliy san'at ta'limida an'anaviy O'zbekiston xalq hunarmandchiligini innovatsion pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashning nazariy-metodik asoslarini o'rganadi. Maqolada xalq hunarmandchiligi mazmuni (ganchkorlik, naqqoshlik, kulolchilik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi)ni zamonaviy o'qitish yondashuvlari (flipped classroom, raqamli modellashirish va interfaol baholash) bilan uyg'unlashtiruvchi pedagogik model taklif etilgan. –

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xususan amaliy san'at va badiiy ta'lim yo'nalishlarida bo'lajak mutassislarining ijodiy salohiyati va kasbiy kompetensiyalarini oshirish ta'lim siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Amaliy san'at fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar: badiiy naqqoshlikning o'ziga xosligi va estetik mohiyati; amaliy va badiiy bezak san'atida kompozitsiya masalalari haqida tasavvurga ega bo'lishi; murakkab naqshli kompozitsiyalar tuzish; amaliy san'atda kompozitsiyaning qo'llanishini va ko'plab ko'nikmalarni o'zlashtirishi mumkin.

Amaliy san'at ta'limida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ikki xil konseptual yondashuv va ularning o'zaro integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Birinchi yondashuv vakillari talabalarda badiiy did, estetik dunyoqarash va milliy o'zlikni shakllantirishda xalq amaliy san'ati hamda naqqoshlik an'alarining o'rnini ustuvor deb

hisoblaydilar [1]. Shu bilan birga, milliy madaniy qadriyatlar va an'anaviy hunarmandchilik turlarini o'quv jarayoniga integratsiyalash talabalarining kompozitsion fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiladi [3]. Ushbu an'analarni zamonaviy dizayn va amaliy san'at asoslari bilan bog'lab o'qitish esa ularning amaliy-dekorativ mahoratini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi [5].

Ikkinchi yondashuv esa ta'lim jarayonida raqamli va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishga qaratilgan. Xususan, oliy ta'limda raqamli vositalarni qo'llash talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish imkonini beradi [4]. Raqamli davrda madaniy va ta'limiy muhitni modernizatsiya qilish zamonaviy ta'lim standartlarining muhim talabiga aylanmoqda [6]. Shu bois, an'anaviy san'at turlarini interfaol va raqamli metodlar vositasida o'qitish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [8].

Ilmiy manbalar va oliy ta'lim amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy xalq san'ati va hunarmandchiligini o'qitishda faqatgina an'anaviy-reproduktiv (nusxa ko'chirish) usullaridan foydalanish zamonaviy talabalarining ijodiy salohiyati, fazoviy tasavvuri va raqamli savodxonligini to'liq ochib berishga yetarlilik qilmayapti. Boshqa tomondan, raqamli texnologiyalarni milliy-badiiy kontekstdan uzilgan holda qo'llash amaliy san'atning tarixiy-stilistik ildizlaridan uzoqlashish xavfini tug'diradi. Shunday qilib, milliy hunarmandchilik an'analari va zamonaviy raqamli-pedagogik metodlar o'rtasidagi didaktik va metodik uzviylikning yetarlicha tadqiq etilmaganligi ushbu tadqiqotning ilmiy muammosini tashkil etadi.

Amaliy san'at ta'limida talabalarining ijodiy qobiliyatlari va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun milliy xalq hunarmandchiligi an'analari (ganchkorlik, naqqoshlik, kulolchilik va b.) hamda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni o'zida mujassam etgan integratsiyalashgan pedagogik modelni ishlab chiqish va uning nazariy-metodik asoslarini dalillashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Amaliy san'at ta'limida milliy hunarmandchilik an'analari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mahalliy va xalqaro ilmiy-pedagogik tajribalarni tahlil qilish;
2. An'anaviy mazmun va raqamli vositalar (PBL, generativ SI, 3D modellashtirish) integratsiyasiga asoslangan pedagogik model strukturasini ishlab chiqish;
3. Amaliy san'at yo'nalishi talabalarining ijodiy fikrlash, kompozitsiya tuzish va texnik mahoratini izchil rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, amaliy san'at va badiiy ta'lim tizimini takomillashtirish masalasi mahalliy va xalqaro tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Xalq amaliy bezak san'ati, xususan ganchkorlik, naqqoshlik va ceramika (kulolchilik) an'analarining badiiy-stilistik xususiyatlari hamda ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish usullari S.Bulatov [1], D.Karimova [3] va R.Raxmonov [5] ilmiy ishlarida batafsil tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda milliy va amaliy san'at elementlarini o'rgatish talabalarda estetik did va kompozitsion fikrlashni shakllantirishning asosi ekanligi e'tirof etiladi. F.Yusufxodjayeva [8] o'z ishida O'zbekiston hududidagi amaliy bezak san'atining hududiy maktablari va ularning o'quv darslaridagi nazariy-metodik o'rnini ko'rsatib o'tadi.

Boshqa tomondan, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri J.Yo'ldoshev [7] va UNESCO [6] hisobotlarida yoritilgan. San'at ta'limiga raqamli platformalar, 3D modellashtirish hamda sun'iy intellekt vositalarini tatbiq etish tajribalari L.Liu va Z.Xiao [4] hamda R.Jabbarov [2] ishlarida o'rganilgan. Ayniqsa, R.Jabbarov ta'kidlaganidek, "Nazariy bilimdan ijodiy ko'nikmaga" (NBIK) o'tish modellarida generativ sun'iy intellekt va kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish talabalarda g'oyadan tayyor loyihagacha bo'lgan ijodiy bosqichlarni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy hunarmandchilik turlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar (PBL, Flipped Classroom) va raqamli texnologiyalar bilan metodik jihatdan yaxlit bir tizimga keltiruvchi integratsiyalashgan pedagogik modellar haligacha yetarlicha tizimlashtirilmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy va metodologik xarakterga ega bo'lib, unda ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy-pedagogik tahlil, mantiqiy umumiyashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. To'plangan ilmiy manbalar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar [7] va ilg'or tajribalar asosida amaliy san'at ta'limini modernizatsiya qilishning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'rganilgan ilmiy manbalar va ilg'or pedagogik texnologiyalar tahlili asosida an'anaviy hunarmandchilik turlarini zamonaviy o'qitish metodlari hamda raqamli vositalar bilan bog'lovchi pedagogik model shakllantirildi (1-jadval).

1-jadval. An'anaviy mazmun va innovatsion metodlar integratsiyasi modeli

An'anaviy mazmun (Yo'nalish)	Innovatsion pedagogik metod / Raqamli Texnologiya	Rivojlantiriladigan pedagogik ko'nikma va kompetensiya
Ganchkorlik va naqqoshlik (geometrik va islimiy naqqshlar)	PBL (Loyiha asosida o'qitish), DALL-E (generativ SI) va NBIK-modeli	Mustaqil kompozitsiya tuzish, mantiqiy, analitik va estetik fikrlash

An'anaviy mazmun (Yo'nalish)	Innovatsion pedagogik metod / Raqamli Texnologiya	Rivojlantiriladigan pedagogik ko'nikma va kompetensiya
Zargarlik va badiiy ishlov	Raqamli model va eskiz (<i>Tinkercad, Canva, CorelDRAW</i>)	Fazoviy fikrlash hamda 3D modellashtirish savodxonligi
Yog'och o'ymakorligi va kulolchilik	To'ntarilgan sinf (<i>Flipped classroom</i>) va adaptiv testlar (<i>iSpring</i>)	Nazariyani mustaqil o'zlashtirib, amaliy ustaxona vaqtidan unumli foydalanish
Badiiy to'qimachilik va kashtachilik	Jamoaviy interaktiv loyihalar	Hamkorlikdagi ijodkorlik (<i>Collaborative creativity</i>)

Ilmiy manbalar hamda mahalliy pedagog-olimlarning tadqiqotlari tahlili quyidagi muhim metodik xulosalarni beradi:

XULOSA

An'anaviy xalq hunarmandchiligi va innovatsion pedagogik texnologiyalar bir-birini to'ldiruvchi uzviy tizimdir. Ularning integratsiyasi amaliy san'at ta'limida talabalarning texnik, madaniy va ijodiy ko'nikmalarini kompleks ravishda rivojlantirishning nazariy va metodik asosini tashkil etadi.

Tadqiqot asosida beriladigan tavsiyalar:

1. Amaliy san'at ta'limi o'qituvchilari uchun raqamli vositalar va interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
2. OTM amaliy san'at yo'nalishlarida an'anaviy ustaxonalar bilan birga raqamli modellashtirish imkoniyatini beruvchi "Raqamli naqqoshlik laboratoriyalari"ni tashkil etish;
3. O'quv reja va fan dasturlarida amaliy mashg'ulotlarni loyihaga asoslangan ta'lim (*PBL*) va adaptiv raqamli baholash mexanizmlari bo'yicha qayta ko'rib chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bulatov, S. S. (1991). *O'zbek xalq amaliy bezak san'ati*. Toshkent: O'qituvchi.
2. Jabbarov, R. R. (2026). Oliy ta'lim muassasalarida «Amaliy bezak san'ati» fanini o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi dasturiy mahsulotlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi. *Kasb-hunar ta'limi*, (3), 104–113.

-
3. Karimova, D. (2021). *San'at ta'limida milliy qadriyatlar asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
 4. Liu, L., & Xiao, Z. (2022). Integration of traditional arts and modern pedagogical technologies in higher education. *Journal of Educational Innovation*, 14(2), 45-58.
 5. Raxmonov, R. (2020). *Xalq amaliy san'ati va dizayn asoslari*. Toshkent: Fan.
 6. UNESCO. (2019). *Culture and education in the digital era*. Paris: UNESCO Publishing.
 7. Yo'ldoshev, J. G. (2012). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: O'qituvchi.
 8. Yusufxodjayeva, F. M. (2024). O'zbek amaliy bezak san'ati tarixi va uni zamonaviy ta'lim asosida o'qitish metodikasi. "*Qo'qon sivilizatsiyasi rivoji: qo'lyozma va arxiv manbalar tahlili*" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami, Qo'qon DU, 427–432-betlar.

